

О`ТКАН КУНЛАР ROMANIDAGI DINIY BIRIKMALAR

Boyqulova Sevara

Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ergasheva Dilrabo

Annatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O`tkan kunlar” romanida keltirilgan diniy so`z va birikmalarning morfologik, leksik tahlili va ularning ma`nolarida haqida keltiriladi. Shuningdek, maqolada qodiriyshunos olimlarning fikrlari, ba`zi diniy so`zlarning lug`aviy ma`nolari va ularning arab tilida qanday ma`noda keltirilgani haqida batafsil ma`lumot keltiriladi.

Kalit so`zlar: O`tkan kunlar, hoji, madrasa, mahram, sinonim, turdosh ot

Adabiy tilning shakllanishi, baland maqomi, sheva xazinasidagi so`zlarni iste`molga olib kirishi va esdan chiqqan tub va diniy so`zlarning qayta qo`llanishida adiblarning o`rni beqiyos. Adabiyot darslarimizda e`lon qilinayotgan diniy e`tiqod, diniy amallar va bshqa diniy tushunchalar tasvirini atroflicha ochib berish barchamizning vazifamzdir. Ezgu ishlar, ezgu qahramonlardan ibrat chiqarish qahramonlarning xarakterli tomonlari, xatti-harakatlari, gap-so`zlari tahlilga tortishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shundan kelib chiqsak, maktablarda dunyoviy bilim bilan birga diniy bilim birga olib boriladi.

Hech shubhasiz, shu o`rinda Abdulla Qodiriyning ijodiy merosiga to`xtalganimizda uning merosi o`zbek adabiy tilning tarixida alohida bosqich sifatida qaralishga munosibdir. Quyida esa Abdulla Qodiriyning “O`tkan kunlar” romanida qo`llanilgan diniy so`z va birikmalarning morfologik, leksik ma`no jihatdan tahliliga qaratmoqchimiz.

Abdulla Qodiriy fikr ifodasining qisqa va aniqligini, kam so`z bilan ko`p ma`no berish yo`sinni qadrlab, yozishda ortiqcha so`z va jummalarni qisqartirishdan saboq beradi. Shu bois professor Bahodir Karimovning “So`z so`ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak” nomli maqolasida: “Asli yozg`uchuliq, aytmakchi bo`lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, orag`a anglashilmovchilik solmaslikda va so`zlovchi har bir aytgan so`zining ma`nosini chuqur bilmog`i lozim deb ta`kidlaydi.

Romanda keltirilgan hoji, madrasa, mulla, mahram, azalar, tasbih va boshqa so`zlarni morfologik va leksik jihatdan tahlil qilamiz. Bu so`zlarni morfologik jihatdan tahlil qilsak, ot turkumiga oid so`zlar hisoblanadi. Masalan, ”hoji” so`zini morfologik jihatdan tahlil qilsak, bu so`z otning mano jihatidan turdosh ot va ijtimoiy faoliyat-jarayon oti hisoblanadi. Kelishik shakllarning qo`llanishiga ko`ra esa bosh kelishikda turibdi. Yasalishi jihatdan esa soda tub so`z. Shu o`rinda romanda adib tomonidan Otabekning Beklarbegi madrasasining peshqadam mullabachchalaridan ekanligi

haqidagi ta'rifida, madrasa va mulla so'ziga to'xtalib o'tamiz. "Madrasa" so'zining lug'aviy ma'nosi arabcha o'rganmoq, ya'ni musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurti hisoblanadi. Madrasa so'zini morfologik jihatdan ot so'z turkumi va ma'naviy turi jihatdan turdosh o'tning o'rin-joy otiga olamiz va "mulla" so'zini ham ot so'z turkumiga oid, turdosh ot hisoblanadi. Romanda qo'llangan tasbih, mahram, azalar so'zlari leksik jihatdan tahlil qilinganda, "tasbih" so'zi arabcha xudoni maqtash, sharaflash demakdir. Leksik jihatdan bir ma'noli so'z hisoblanadi. "Tasbih" so'zining ba'zi lug'atlarda "tasbeh" shakli ham mavjud. Bu ikki so'z ma'no jihatdan bir xil ma'noga ega, ammo so'zning ikkinchi bo'g'inida "i" va "e" shaklda keltirilgan variant mavjud. Lekin biz asosan so'zlashuvda "tasbih" ya'ni ikkinchi bo'g'in "i" tarzida ifodalanga shaklini ishlatamiz. Ba'zi shevalarda i unlisi e unlisiga monand aytiladi. Tasbih so'zi ham ba'zi sheva vakillarining tiliga moslashib unililar almashishi natijasida shu ikki shakl qo'llanib ketgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari "tasbih" so'zining bir necha sinonimlari ham mavjud: takbir, tahmid, tahlil kabilar.

"O'tkan kunlar" romanida qo'llangan "mahram" va "aza" so'zlari ham leksik va morfologik ma'noga ega. "Mahram" so'zi arabcha qarindosh ya'ni shariatda o'zaro nikoh man etilgan va eng yaqin qarindoshlik aloqasida bo'lgan erkak va ayol. Bu so'z leksik jihatdan paronim va omonimlik xususiyatiga ega emas. Bir ma'noli so'z hisoblanadi. Antonimi "nomahram" ya'ni "mahram" so'ziga zid qo'yiladi. "Aza" so'zi xuddi shu o'rinda ot turkumiga oid leksik ma'noga ega bir ma'noli so'z. Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra "to'y" so'zi bilan antonimlik munosabatiga ega so'z hisoblanadi.

Oybek "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" risolasida yozuvchi romanlari tili masalasi o'rtaga qo'yilganda, "O'tkan kunlar" romanida yozuvchi til ustida katta mahorat ko'rsatadi va bu roman yangi o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida katta rol o'ynaydi", degan fikrlarni yozadi. Jumladan asarda Yusufbek hoji tilidan yozilgan maktubning boshlanmasi "Huvalbari" deya boshlanadi. Bu boshlanma bir qarashda islom muhitiga xos so'zga o'xshaydi. Romanning biz o'qiyotgan nashrida esa ushbu boshlanma so'zga "Ul Tangri, ul yaratuvchi" deya izoh berilgan. Isloh qilingan arab yozuvida esa "huvalbori" shaklida emas, hozirgi yozuvga "Hu-al-Bori" tarzida tabdil qilinsa tabdil to'g'rib bo'lar edi, ya'ni "U Oллоh taolo bori" dir degan ma'noni beradi. Bu o'rinda "Hu" deyilganda Oллоh, "Bori" deyilganda Oллоhning biror-bir sifati nazarda tutiladi. Shuningdek, romanda "shahid etmoq" birikmasini morfologiyada fe'l so'z turkumiga oid qo'shma fe'lga kiritamiz. Bu so'z fe'l so'z turkumi jihatdan tahlil qilinsa, vazifasiga ko'ra holat va aniq nisbatdagi sof fe'l hisoblanadi. Leksik jihatdan esa sinonimlik xususiyatiga ega so'z. Sinonimlari sifatida esa "jangda o'lgan", "urushda o'lgan", "o'ldirilgan", "qurbon qilingan", "aziyat chekuvchi" kabi so'zlarni olish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, Abdulla Qodiriy o'zbeklar yashash tarzini, dinini, urf-odatlarini, til va unga oid so'zlar ma'nosini yaxshi bilgan va ularni

o`z asarlarida qo`llay olgan. Adibning “O`tkan kunlar” romanida adabiy tilning go`zalligi, latofati, tasvir va ifodaning keng ko`lamligi yorqin aks ettirilgan. Shuningdek adib filolog olimlar qatori o`zbek adabiy tilining yuksalishiga o`z hissasini qo`shgan. Shu o`rinda asarda diniy so`z va birikmalarning qo`llanilishi nafaqat bizga tariximizni balki tishunoslikning ma`lum bir turkum sohasida qo`llanilishini ham o`rgandik. Fikrlarni umumlashtirib aytganda ba`zi diniy so`zlarning lug`aviy, leksik ma`nolari haqida ham umumiy ma`lumotga ega bo`ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qodiriy. O`tkan kunlar romani. B-396 Toshkent, 2019
2. R.Sayfullayeva va boshqalar hozirgi o`zbek adabiy tili. B-124 Toshkent, 2009y
3. B.Karimov. ”So`z so`ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak” risolasi. Prezident matbuot xizmati . Toshkent 2022
4. M.Hamrayev. Ona tili qo`llanma. 2016y
5. H.Jamolhonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent. Talqin nashriyoti 2005y, 201b